



O'ZBEKISTONDA HUDUDIY TAFOVUTLARNI QISQARTIRISH ORQALI INKLYUZIV O'SISHGA ERISHISH YO'LLARI

Raximov Eshmurod Normuradovich,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
"Makroiqtisodiy siyosat va prognozlashtirish"
kafedrası dotsenti.
Email: raximoveshmurod88@gmail.com
ORCID ID: 0009-0005-5961-7683

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 9-fevral 2026-yil
Tasdiqlandi: 11-fevral 2026-yil
Jurnal soni: 17-B
Maqola raqami: 77
DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v17i.1539>

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS

inklyuziv o'sish, hududiy tafovutlar, konvergentsiya, investitsiya siyosati, inson kapitali, infratuzilma, mintaqaviy rivojlanish

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada O'zbekistonda hududiy ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarni qisqartirish orqali inklyuziv iqtisodiy o'sishga erishish masalalari tahlil qilinadi. Hududlar o'rtasidagi yalpi hududiy mahsulot, aholi daromadlari, investitsiya oqimlari va infratuzilma bilan ta'minlanganlik darajasidagi farqlar o'sishning inklyuzivligini cheklovchi omil sifatida baholanadi. Tadqiqotda hududiy konvergentsiya nazariyalari, institutsional va makroiqtisodiy yondashuvlar asosida O'zbekiston sharoitiga mos mexanizmlar taklif etiladi.

Bundan tashqari, ushbu tadqiqot ishida davlatning hududiy siyosati, jumladan, hududlarni kompleks rivojlantirish dasturlari, kambag'allikni qisqartirish va yangi ish o'rinlarini yaratishga qaratilgan chora-tadbirlarning ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijasida hududlar o'rtasidagi tafovutlarni kamaytirish orqali iqtisodiy o'sishning barqarorligi va inklyuzivligi oshishi, aholi farovonligi yaxshilanishi hamda ijtimoiy tenglik ta'minlanishi mumkinligi xulosa qilingan.

Mazkur maqola natijalari O'zbekistonda inklyuziv iqtisodiy o'sishni ta'minlashga qaratilgan strategik qarorlar ishlab chiqishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Kirish. Hozirgi globallashuv va iqtisodiy transformatsiya sharoitida iqtisodiy o'sish samaradorligini baholash mezonlari tubdan kengaymoqda. Endilikda rivojlanish darajasi nafaqat yalpi ichki mahsulot yoki boshqa agregat makroiqtisodiy ko'rsatkichlar bilan, balki o'sish jarayonining inklyuzivligi, ya'ni uning aholi turli qatlamlari va hududlarga ta'siri darajasi bilan ham aniqlanmoqda. Inklyuziv o'sish iqtisodiy rivojlanishning shunday modelini ifodalaydiki, unda teng imkoniyatlar yaratish, daromadlar taqsimotidagi nomutanosiblikni kamaytirish hamda ijtimoiy adolatni ta'minlash ustuvor vazifa sifatida belgilanadi.

Shu nuqtai nazardan, hududiy tafovutlar masalasi inklyuziv o'sish konsepsiyasining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Mamlakat miqyosida yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlari qayd etilgan taqdirda ham, agar ushbu o'sish natijalari hududlar kesimida notekis taqsimlansa, uning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi pasayadi. Yalpi hududiy mahsulot hajmi, aholi daromadlari, investitsiya oqimlari, infratuzilma va inson kapitali rivojlanishidagi farqlar hududlar o'rtasida iqtisodiy imkoniyatlarning teng emasligini ko'rsatadi. Bunday nomutanosiblik uzoq muddatli barqaror o'sish uchun institutsional va strukturaviy cheklovlarni yuzaga keltiradi.

O'zbekiston sharoitida ham so'nggi yillarda iqtisodiy islohotlar natijasida barqaror o'sish sur'atlari ta'minlanayotgan bo'lsa-da, hududlar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlar saqlanib qolmoqda. Ayrim hududlar sanoatlashuv va xizmatlar sektori rivoji hisobiga yuqori iqtisodiy faollikka ega bo'lsa, boshqalarida investitsiya yetishmovchiligi, infratuzilmaning rivojlanishidan va mehnat bozori cheklovlari kuzatiladi. Bu esa inklyuziv o'sish tamoyillarini to'liq ro'yogga chiqarishni murakkablashtiradi.

Mazkur holatda davlatning roli strategik ahamiyat kasb etadi. Davlat ta'lim, sog'liqni saqlash, transport-logistika va raqamli infratuzilmani rivojlantirish, shuningdek, hududiy investitsiya siyosatini takomillashtirish orqali iqtisodiy konvergentsiyani rag'batlantirishi mumkin. Hududiy tafovutlarni qisqartirish orqali iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish, ichki bozor integratsiyasini kuchaytirish hamda aholi farovonligini oshirish imkoniyati yuzaga keladi.

Shunday qilib, hududiy tafovutlarni kamaytirish masalasi O'zbekistonda inklyuziv iqtisodiy o'sishga erishishning muhim sharti sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur tadqiqot hududlararo nomutanosibliklarning iqtisodiy mohiyatini tahlil qilish, ularning o'sish jarayoniga ta'sirini baholash hamda milliy sharoitga mos institutsional va makroiqtisodiy mexanizmlarni asoslashga qaratilgan.

Adabiyotlar tahlili. Hududlar o'rtasidagi iqtisodiy nomutanosibliklarni kamaytirish masalasi xalqaro iqtisodiy siyosatning ustuvor va barqaror yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlarda hududiy boshqaruv tizimining samarali tashkil etilishi, infratuzilma investitsiyalarini oqilona taqsimlash hamda mintaqaviy strategik rejalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish orqali iqtisodiy tengsizlikni sezilarli darajada kamaytirish mumkinligi asoslab berilgan.

Hududiy tafovutlarni tahlil qilishning klassik nazariy bazasi iqtisodiy o'sish va konvergentsiya nazariyalariga borib taqaladi. Neoklassik yondashuvga ko'ra, kapitalning kamayuvchi chegaraviy mahsulodrigi tufayli past rivojlangan hududlar tezroq o'sish sur'atlariga ega bo'lib, vaqt o'tishi bilan rivojlangan hududlarga yaqinlashadi (β -konvergentsiya). Ushbu yondashuv batafsil yoritilgan manba – Economic Growth.

Biroq amaliyotda ko'plab mamlakatlarda σ -konvergentsiya (daromadlar dispersiyasining kamayishi) har doim ham kuzatilmaydi. Bu esa yangi iqtisodiy geografiya va makoniy iqtisodiyot nazariyalarining shakllanishiga sabab bo'ldi. Geography and Trade asarida aglomeratsiya effektlari, transport xarajatlari va miqyos iqtisodiy tufayli iqtisodiy faollikning ma'lum hududlarda to'planishi asoslab berilgan. Ushbu model hududiy nomutanosibliklarning ichki mexanizmlarini tushuntirishda muhim metodologik asos hisoblanadi.

Shuningdek, World Bank tomonidan chop etilgan World Development Report: Reshaping Economic Geography hisobotida makoniy rivojlanishning uch asosiy omili – zichlik, masofa va bo'linish (density, distance, division) konsepsiyasi orqali hududiy tafovutlarning iqtisodiy sabablari tizimlashtirilgan.

Hududiy tengsizlik faqat iqtisodiy omillar bilan emas, balki siyosiy va institutsional determinantlar bilan ham belgilanadi. Andrés Rodríguez-Pose tadqiqotlarida hududiy rivojlanishning muvaffaqiyati samarali boshqaruv, fiskal markazlashuv darajasi va mahalliy institutlar sifatiga bog'liqligi ko'rsatib berilgan.

Davlat investitsiyalarining hududlar bo'yicha taqsimlanishi masalasini regressiya modellari orqali o'rgangan Luca va Andrés Rodríguez-Pose investitsiya oqimlari iqtisodiy samaradorlik bilan bir qatorda siyosiy omillarga ham bog'liqligini aniqlagan.

Organisation for Economic Co-operation and Development tomonidan e'lon qilinadigan OECD Regional Outlook hisobotlari hududiy siyosat samaradorligini baholashda ko'p darajali boshqaruv (multi-level governance) konsepsiyasini ilgari suradi.

O'zbekiston bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda ham hududiy tafovutlar masalasi muhim o'rin egallaydi. Mahmudov hududiy ishlab chiqarish hajmi va aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iqtisodiy ko'rsatkichlar asosida mintaqalararo farqlarni statistik jihatdan asoslab bergan.

Tojiyeva katta ma'lumotlar (big data) va matematik statistika usullaridan foydalangan holda ekologik-iqtisodiy barqarorlikni baholagan.

Xizmatlar sektori kesimida Musagaliyev va Abraev hududiy o'sish sur'atlari hamda xizmat ko'rsatish tarmoqlarining tarkibiy tuzilishini miqdoriy ko'rsatkichlar asosida o'rgangan.

Kuvandikov oilaviy tadbirkorlik indeksini ishlab chiqib, ayniqsa chekka hududlarda iqtisodiy faollikni rag'batlantirish mexanizmlarini taklif etgan.

Shuningdek, Shao O'zbekiston iqtisodiyotini ekologik va ijtimoiy barqarorlik bilan uyg'unlashtirish zarurligini ta'kidlab, "Belt and Road" tashabbusi doirasida hududlararo integratsiyani kuchaytirish muhimligini asoslaydi. Uning fikricha, resurslarga asoslangan strategik yondashuv hududiy salohiyatdan samarali foydalanish imkonini beradi va mamlakatning mintaqaviy raqobatbardoshligini oshiradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotni amalga oshirishda kompleks ilmiy metodlar qo'llaniladi. Tadqiqotning maqsadi hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarni aniqlash va ularni bartaraf etish orqali inklyuziv iqtisodiy o'sishga erishish hisoblanadi. Bunda quyidagi metodlar asosiy o'rin tutadi:

1. Ma'lumotlar tahlili: Bu jarayonda mavzuga oid bo'lgan nazariy va ilmiy ishlar bo'yicha xalqaro va mahalliy manbalar o'rganilib tahlil qilinadi.
2. Qiyosiy tahlil usuli: Bunda xalqaro va mahalliy tajribalar, ko'rsatkichlar taqqoslab tahlil qilinadi.
3. Statistik va ekonometrik tahlil: O'zbekiston hududlari misolida hududiy tengsizlik masalasi statistik kursoratkichlar va ekonometrik tahlillar asosida o'rganiladi.


Natijalar. Yalpi hududiy mahsulot (YHM) hududning iqtisodiy rivojlanish darajasini ifodalovchi eng muhim makroiqtisodiy ko'rsatkich hisoblanadi. U ma'lum bir hududda ma'lum davr mobaynida yaratilgan

yakuniy tovar va xizmatlar qiymatini aks ettirib, hududning ishlab chiqarish salohiyati, iqtisodiy faolligi va tarmoqlar tarkibini kompleks ravishda ifodalaydi. YHM ko'rsatkichi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi tomonidan hududlar kesimida shakllantiriladi va bu ma'lumotlar mintaqalar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni aniqlashda muhim axborot manbai bo'lib xizmat qiladi.

Hududlar o'rtasida YHM hajmining farqlanishi iqtisodiy resurslar taqsimotidagi nomutanosiblik, ishlab chiqarishning hududiy konsentratsiyasi hamda infratuzilma va investitsiya salohiyatidagi tafovutlarni aks ettiradi. Ayniqsa, YHMning o'rtacha qiymati va standart og'ish ko'rsatkichlari hududlararo iqtisodiy tengsizlik darajasini statistik jihatdan baholash imkonini beradi. Standart og'ishning yuqori bo'lishi iqtisodiy faollik ayrim hududlarda jamlanganini, past bo'lishi esa hududlar rivojlanish darajasining nisbatan yaqinlashganini bildiradi.

Shu bois YHM hududiy tafovutlarni qisqartirish va inklyuziv iqtisodiy o'sishga erishish jarayonini baholashda asosiy indikator sifatida maydonga chiqadi. Uning barqaror va hududlar kesimida muvozanatli o'sishi iqtisodiy rivojlanish natijalarining keng qatlamlar va barcha hududlarga teng taqsimlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Quyida 2021-2025-yillarda YHM ning o'rtacha qiymati va standart og'ish ko'rsatkichlari aniqlanib, dinamik tahlil qilinadi. (1-rasm)



1-rasm. 2021-2025-yillar kesimida O'zbekiston Respublikasi hududlaridagi YHM o'rtacha qiymati va standart og'ishi(mlrd.so'm)

YHMning o'rtacha qiymati so'nggi besh yil davomida izchil o'sib borgan. 2021 yildagi 54063.55 ko'rsatkich 2025-yilga kelib 114192.0857 ga yetgan, bu esa so'nggi besh yillikda 2,1 baravardan ko'proq o'sish demakdir. Ushbu holat hududiy iqtisodiyotning jadal rivojlanishi va ishlab chiqarish hajmining oshganini ko'rsatadi.

YHMning standart og'ishi ham o'suvchi tendensiyaga ega bo'lib, 2021-yilda 8757.03946bo'lgan standart og'ish 2025-yilda 22438.65684ga yetgan, ya'ni hududlar o'rtasidagi tafovut qariyb 2,56 barobarga ortgan. Bu shuni anglatadiki, hududlar iqtisodiy rivojlanish sur'atlarida nomutanosiblik

mavjud bo'lib, ayrim hududlar tez rivojlangan bo'lsa, boshqalari sekin o'smoqda, ya'ni hududiy farqlanish va iqtisodiy beqarorlik yil sayin oshib bormoqda.

2024-yil ma'lumotlariga asosan Qoraqalpog'iston respublikasi, Toshkent shahri va 12ta viloyatlarni YHM hajmi bo'yicha quyidagicha guruhlariga ajratdik: bunda [0-60 000) past, [60 000- 120 000) o'rta daraja, [120 000-180 000) yuqori, [180 000 va undan yuqori] juda yuqori darajalarni anglatadi(1-jadval).

1-jadval.

YHM hajmi bo'yicha hududlarning guruhlanishi va chastotalari(2025-yil)		
Toifa guruhlari	Hududlar (mlrd.so'm)	Chastota
Past [0-60 000)	Sirdaryo (35794.4), Jizzax (52956.7), Qoraqalpog'iston Respublikasi (54076.9)	3
O'rta daraja [60 000- 120 000)	Xorazm (62987.5), Surxondaryo (66186.5), Namangan (85419), Buxoro (86608.1), Qashqadaryo (98783.4), Andijon (107717.6), Farg'ona (111305.3)	7
Yuqori [120 000-180 000)	Samarqand (121489.5), Navoiy (167964.6)	2
Yuqori daraja [180 000 va undan yuqori]	Toshkent viloyati (180177.4), Toshkent shahri (367222.3)	2

Jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, hududlar kesimida Yalpi hududiy mahsulot (YHM) hajmi bo'yicha sezilarli differensial mavjud. Xususan, Toshkent shahri va Toshkent viloyati eng yuqori ko'rsatkich bilan keskin ajralib turadi. Shuningdek, Navoiy viloyati va Samarqand viloyati ham YHM hajmi jihatidan yetakchi pozitsiyani egallagan. Aksariyat viloyatlar (60 000-120 000) oralig'idagi o'rtacha guruhga to'g'ri keladi. Biroq Sirdaryo viloyati, Jizzax viloyati hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi YHM hajmi bo'yicha eng past pog'onani egallagan. Mazkur holat hududlar o'rtasidagi iqtisodiy nomutanosiblik darajasi yuqoriligini, shuningdek investitsiya oqimi va ishlab chiqarish salohiyatidagi tafovutlar sezilarli ekanligini ko'rsatadi.

Muhokama. Mehnatga layoqatli yoshdagi doimiy aholi soni hududiy iqtisodiy rivojlanishni belgilovchi asosiy demografik va makroiqtisodiy omillardan biridir. Ushbu ko'rsatkich hududning mehnat resurslari salohiyatini, ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etish imkoniyatini hamda iqtisodiy o'sishning ichki manbalarini ifodalaydi. Statistik ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi

tomonidan hududlar kesimida shakllantiriladi va mintaqaviy tahlil uchun muhim axborot bazasini yaratadi.

Birinchiidan, mehnatga layoqatli aholi soni hududiy yalpi mahsulot (YHM) hajmining shakllanishida bevosita ishtirok etadi. Mehnat resurslari qancha ko'p va sifat jihatdan yuqori bo'lsa, ishlab chiqarish quvvati va xizmatlar ko'rsatish hajmi shuncha kengayadi. Shu sababli mehnat resurslari yetarli bo'lmagan hududlarda iqtisodiy o'sish sur'atlari pastroq bo'lishi kuzatiladi.

Ikkinchiidan, hududlar o'rtasida mehnatga layoqatli aholi sonining notekis taqsimlanishi iqtisodiy tafovutlarni kuchaytiradi. Yirik iqtisodiy markazlarda mehnat resurslari va ish o'rinlarining konsentratsiyasi yuqori bo'lsa, kam rivojlangan hududlarda bandlik imkoniyatlari cheklangan bo'ladi. Natijada ichki migratsiya kuchayadi, mehnat bozori nomutanosibligi yuzaga keladi va hududlararo daromad farqlari ortadi.


Uchinchiidan, inklyuziv o'sish nuqtai nazaridan mehnatga layoqatli aholi soni nafaqat miqdor, balki sifat jihatdan ham ahamiyatlidir. Ta'lim darajasi, kasbiy malaka, sog'liq holati va mehnat unumdorligi iqtisodiy o'sishning inklyuzivligini belgilaydi. Agar mehnat resurslari samarali

bandlik bilan ta'minlansa, iqtisodiy o'sish natijalari keng qatlamlarga taqsimlanadi; aks holda, yuqori ishsizlik yoki norasmiy bandlik inklyuzivlikni cheklaydi.

To'rtinchidan, demografik omil hududiy siyosat samaradorligini baholashda muhim mezon hisoblanadi. Mehnatga layoqatli aholining ko'payishi "demografik dividend" imkoniyatini yaratadi, biroq bu

imkoniyat faqat iqtisodiy infratuzilma, investitsiya muhiti va ishlab chiqarish bazasi bilan uyg'unlashgandagina ijobiy natija beradi.

Quyida 2021-2025-yillarda mehnatga layoqatli yoshdagi doimiy aholi sonining o'rtacha qiymati va standart og'ish kursorikhlari aniqlanib, dinamik tahlil qilinadi. (2-rasm)



2-rasm. 2021-2025-yillar kesimida O'zbekiston Respublikasi hududlaridagi mehnatga layoqatli yoshdagi aholi sonining o'rtacha qiymati va standart og'ishi(ming kishi)

Mehnatga layoqatli yoshdagi doimiy aholi sonining o'rtacha qiymati so'nggi besh yil davomida o'sib borgan. 2021 yildagi 1438.221429 ko'rsatkich 2025-yilga kelib 1502.8ga yetgan, bu esa so'nggi besh yillikda 1.04 baravardan ko'proq o'sish demakdir. Ushbu holat hududiy iqtisodiyotning rivojlanishi va ishlab chiqarishda mehnat ersurlarining oshganini ko'rsatadi.

Mehnatga layoqatli yoshdagi doimiy aholi sonining standart og'ishi ham o'suvchi tendensiyaga ega bo'lib, 2021-yilda 149.8261506 bo'lgan standart og'ish 2025-yilda 156.4214689 ga yetgan, ya'ni hududlar o'rtasidagi tafovut qariyb 1.04 barobarga ortgan. Bu shuni anglatadiki hududlarda mehnatga layoqatli yoshdagi aholi sonining hududiy tafovuti unchalik ham katta emas.

2-jadval.

Mehnatga layoqatli yoshdagi aholi soni bo'yicha hududlarning guruhlanishi va chastotalari (2025-yil)		
Toifa guruhlar	Hududlar (mlrd.so'm)	Chastota
Past [0-600)	Sirdaryo (541.6),	1
O'rta daraja [600- 1200)	Navoiy (620.2), Jizzax (853.5), Buxoro (1181.9), Xorazm (1184.2), Qoraqalpog'iston Respublikasi (1189.8)	5
Yuqori [1200-1800)	Surxondaryo (1620.5), Toshkent viloyati (1742.9), Toshkent shahri (1746), Namangan (1748.5)	4
Yuqori daraja [1800 va undan yuqori]	Andijon (1919.2), Qashqadaryo (2010.2), Farg'ona viloyati (2314.4), Samarqand viloyati (2366.3)	4

Jadval ma'lumotlariga ko'ra mehnatga layoqatli yoshdagi doimiy aholi soni bo'yicha Sirdaryo viloyati eng past ko'rsatkichni qayd etgan. Ya'ni 2025-yilda mehnatga layoqatli yoshdagi doimiy aholi soni bu hududda 541.6 ming kishini tashkil etgan.

Eng yuqori ko'rsatkich esa Andijon, Qashqadaryo, Farg'ona va Samarqand viloyatlariga to'g'ri kelgan.


Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ifodalovchi asosiy indikatorlardan biri aholi jon boshiga umumiy daromadlar hisoblanadi. Mazkur ko'rsatkich aholining turmush darajasi, iste'mol imkoniyatlari va farovonlik darajasini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Aholi jon boshiga umumiy daromadlar tarkibiga pul shaklidagi tushumlar bilan bir qatorda natura ko'rinishidagi daromadlar ham kiradi.

Ular muntazam va takrorlanib turadigan xususiyatga ega bo'lib, ma'lum bir davr — odatda bir yil yoki undan qisqa vaqt oralig'ida — uy xo'jaligi yoki uning alohida a'zolari tomonidan olinadigan barcha tushumlarni o'z ichiga oladi.

Aholining real umumiy daromadlari esa nominal daromadlarni narxlar o'zgarishi ta'siridan tozalash orqali aniqlanadi. Buning uchun nominal umumiy daromadlar tegishli davr iste'mol narxlar indeksiga bo'linadi. Natijada aholining haqiqiy xarid qobiliyatini aks ettiruvchi ko'rsatkich shakllanadi.

Quyidagi rasmda 2021-2025-yillarda aholi umumiy daromadlarining o'rtacha qiymati va standart og'ishining hududlar kesimidagi dinamik tahlili keltiriladi (3-rasm)



3-rasm. 2021-2025-yillar kesimida O'zbekiston Respublikasi hududlaridagi aholi jon boshiga umumiy daromadlari o'rtacha qiymati va standart og'ishi(ming so'mda)

Diagrammadan ko'rish mumkinki, aholi jon boshiga umumiy daromadlarining doimiy o'sish tendensiyasi kuzatilmoqda. 2021-yilda umumiy daromad 16 315.17 ming so'm bo'lgan bo'lsa, 2025-yilda bu ko'rsatkich 30 312.47 ming so'mga yetgan, ya'ni so'nggi besh yil ichida umumiy daromadlar hajmi qariyb ikki baravar oshgan. Har yili

daromadlarning o'sish sur'ati ortib borgan, eng katta o'sish esa 2024-2025-yillar oralig'ida kuzatilgan. Shu bilan birga, standart og'ishning oshib borishi aholining turli qatlamlari o'rtasidagi daromad tafovutlarining kuchayishini ko'rsatadi.

Aholi jon boshiga umumiy daromadlar hajmi (2025-yil) bo'yicha hududlarning guruhlanishi va chastotalari

Toifa guruhlar	Hududlar (mlrd.so'm)	Chastota
Past [15 000-25 000)	Qoraqalpog'iston Respublikasi (20656), Namangan (21304.6), Surxondaryo (22572.2), Jizzax (22907.4), Sirdaryo (23339.5), Qashqadaryo (23517.5), Samarqand viloyati (24471), Farg'ona viloyati (24582.7)	8
O'rta daraja [25 000- 35 000)	Andijon (26275.9), Toshkent viloyati (29830.9), Xorazm (31136)	3
Yuqori [35 000-45 000)	Buxoro (35176.2), Navoiy (44694.2)	2
Yuqori daraja [45 000 va undan yuqori]	Toshkent shahri (73910.5)	1

Guruhlash taqsimotidan ko'rinib turibdiki, respublikaning aksariyat viloyatlari (8ta) aholisi past darajadagi real umumiy daromadlarga ega bo'lib, o'rtacha daromad yillik 17 mln.so'm atrofida. Bu viloyatlar iqtisodiyoti hali ham o'sish bosqichida ekanligini ko'rsatadi. O'rta darajaga kiruvchi viloyatlar 3 ta bo'lib, bular Andijon, Xorazm, Toshkent viloyati. Ushbu guruhda viloyatlar soni oz bo'lsa-da, o'rtacha daromad 22 mln.so'mdan yuqorida, bu mintaqalar iqtisodiy rivojlanishda salmoqli o'rin egallayotganini ko'rsatadi. Navoiy viloyatida aholi jon boshiga real umumiy daromadlar 35 mln.so'mdan yuqori daromadlarni ifodalaydi, bu uning iqtisodiy rivojlanishini ko'rsatadi. Ushbu guruhda faqat bitta viloyat joylashgani sababli, bu viloyatning ahamiyati oshadi. Toshkent shahri aholisi daromadlari 54 mln.so'mdan yuqori bo'lib, u mamlakatning eng rivojlangan va urbanizatsiyalashgan hududi hisoblanadi. Bu hudud iqtisodiy imkoniyatlar, infratuzilma va ish joylarini yaratuvchi asosiy markazdir.

Xulosa va takliflar. O'zbekiston iqtisodiyotida so'nggi yillarda kuzatilayotgan jadal o'sish sur'atlari hududlar kesimida tahlil qilinganda, bir qator tizimli nomutanosibliklar ko'zga tashlanadi. O'tkazilgan statistik tahlillar shuni ko'rsatadiki, mamlakatda Yalpi hududiy mahsulot (YHM) va aholi jon boshiga daromadlar bo'yicha hududlararo farqlanish (standart og'ish) yildan-yilga ortib bormoqda.

Xususan, iqtisodiy faollikning qariyb 40-45 foizi Toshkent shahri va Toshkent viloyatida to'planib qolgani "aglomeratsiya effekti"ni yuzaga keltirmoqda, biroq chekka hududlar (Sirdaryo, Jizzax, Qoraqalpog'iston) iqtisodiy o'sish drayverlaridan biroz chetda qolmoqda. Mehnatga layoqatli aholi soni barcha hududlarda izchil o'sib borayotgan bo'lsa-da, ularning samarali bandligini ta'minlash va daromadlarini oshirish darajasi hududiy iqtisodiyotning salohiyatiga mos kelmayapti. Bu esa inklyuziv o'sishning asosiy tamoyili — "hech kim rivojlanish jarayonidan chetda qolmasligi kerak" degan g'oyani to'liq amalga oshirishga to'sqinlik qilmoqda.

Hududiy tafovutlarni konvergeniya (yaqinlashish) nazariyasi asosida qisqartirish va inklyuzivlikni oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish taklif etiladi:

1. "O'sish qutblari" modelidan hududiy integratsiyaga o'tish

Iqtisodiy faollik faqat yirik markazlarda to'planib qolmasligi uchun past ko'rsatkichga ega bo'lgan hududlarda (masalan, Sirdaryo va Jizzax) Toshkent shahri bilan logistik zanjirni bog'lovchi kichik va o'rta sanoat zonalarini kengaytirish lozim. Bu "diffuziya effekti" orqali markazlardagi texnologiya va investitsiyalarning chekka hududlarga yoyilishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari. Rasmiy statistik ma'lumotlar.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. 2026 yil uchun mo'ljallangan Oliy Majlisga Murojaatnoma.
4. World Bank. World Development Indicators. Washington, DC.
5. International Monetary Fund. World Economic Outlook. Washington, DC.

2. Investitsiya siyosatining hududiy selektivligini oshirish

Investitsiyalarni jalb qilishda barcha hududlarga bir xil yondashuvdan voz kechib, "Hududiy fiskal rag'batlantirish" tizimini joriy etish kerak. Ya'ni, aholi jon boshiga daromadi past bo'lgan hududlarda (Namangan, Surxondaryo kabi) faoliyat boshlagan tadbirkorlar uchun soliq imtiyozlari va kredit stavkalari daromadi yuqori hududlarga (Toshkent shahri, Navoiy) nisbatan tabaqalashtirilgan (pastroq) bo'lishi lozim.

3. Inson kapitalini hududiy ixtisoslashuv asosida rivojlantirish

Mehnat resurslari ko'p bo'lgan Farg'ona, Samarqand va Andijon kabi hududlarda oliy va o'rta maxsus ta'lim yo'nalishlarini aynan shu hududning drayver sohalariga (to'qimachilik, mashinasozlik, agrosanoat) moslashtirish lozim. Bu mehnat unumdorligini oshirish orqali aholi jon boshiga daromadlar orasidagi 3,5 baravarlik tafovutni qisqartirishga yordam beradi.

4. Infratuzilmaviy "bo'linish" (division) ni bartaraf etish

Jahon bankining "zichlik, masofa va bo'linish" konsepsiyasidan kelib chiqib, chekka hududlarni bozorlar bilan bog'lovchi raqamli va transport infratuzilmasiga davlat investitsiyalarini ustuvor yo'naltirish lozim. Internet qamrovi va transport-logistika xarajatlarining kamayishi kichik biznesning makoniy cheklovlarini olib tashlaydi va hududiy konvergeniya tezlashtiradi.

5. Ijtimoiy transfertlardan — iqtisodiy imkoniyatlar yaratishga o'tish

Past daromadli guruhlar yashaydigan hududlarda faqat ijtimoiy nafaqa berish bilan cheklanmay, "Oilaviy tadbirkorlik va o'z-o'zini band qilish" modellari raqamli platformalar orqali yirik bozorlarga (marketplace) integratsiya qilish zarur. Bu daromadlar taqsimotidagi tengsizlikni (Gini koeffitsiyenti) pasaytirishning eng samarali yo'lidir.

6. Hududiy ekonometrik monitoring tizimini joriy etish

Statistika agentligi va Iqtisodiyot vazirligi huzurida hududiy tafovutlarning "erta ogohlantirish indikatorlari" tahlilini yo'lga qo'yish lozim. Agar standart og'ish ko'rsatkichi belgilangan kritik nuqtadan oshib ketsa, o'sha hududga nisbatan maxsus davlat rivojlanish dasturlarini avtomatik ishga tushirish mexanizmini yaratish zarur.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda inklyuziv o'sishga erishish — bu barcha hududlarning iqtisodiy hajmini bir xillashtirish emas, balki qayerda yashashdan qat'i nazar har bir fuqaro uchun teng iqtisodiy imkoniyatlar, sifatli ta'lim va munosib daromad manbalarini yaratish demakdir. Hududiy siyosatning markazlashmagan (decentralized) modeliga o'tish ushbu maqsadga erishishning bosh omili bo'lib xizmat qiladi.

6. United Nations Development Programme. Human Development Report. New York.

7. Rodrik, D. One Economics, Many Recipes: Globalization, Institutions, and Economic Growth. Princeton University Press, 2007.

8. Acemoglu, D., Robinson, J. Why Nations Fail: The Origins of Power, Prosperity, and Poverty. Crown Business, 2012.

9. Stiglitz, J. The Price of Inequality. W.W. Norton & Company, 2012.

10. OECD. Inclusive Growth Framework. Paris, 2018.